

XX ASR BOSHLARIDA O'ZBEK MATBUOTIDA MUSIQA ILMI

Tashpulatov Muzaffar Fayzullayevich

San'atshunoslik fanlari bo'yicha (PhD) falsafa doktori,

O'zbekiston kompozitorlari va bastakorlari uyushmasi a'zosi,
musiqashunosmuzaffar-tashpulatov@mail.ru

Annotatsiya: Mazkur maqolada XX asr boshlarida davr matbuotida musiqa ilmining ёritилиши va uning rivojlаниш тенденциялари таҳлил қилинади. Газета va журналларда чоп этилган мақолалар асосида музикаий таълим, миллий музикаий мерос, ижрочилик анъаналари ҳамда музикашуносликка оид илмий қарашларнинг шаклланиши ўрганилади. Шунингдек, матбуотнинг жамоатчилик онгида музика маданиятини шакллантиришдаги ўрни va аҳамияти ёритилади

Kalit so'zlar: музикашунослик, матбуот, XX asr boshlari, musiqa ilmi, миллий музикаий мерос, ижрочилик анъаналари, таълим, илмий қарашлар

“MUSICOLOGY IN THE UZBEK PRESS OF THE EARLY 20TH CENTURY”

Tashpulatov Muzaffar Fayzullayevich
PhD (Doctor of Philosophy) in Art Studies,
Member of the Union of Composers and Musicologists of Uzbekistan,
Musicologist

muzaffar-tashpulatov@mail.ru

Abstract: This article analyzes the representation of musicology in the press of the early 20th century and its developmental trends. Based on publications in newspapers and journals, the study examines the formation of scholarly views on music education, national musical heritage, performance traditions, and musicological thought. It also highlights the role of the press in shaping public awareness of musical culture.

Keywords: musicology, press, early 20th century, music science, national musical heritage, performance traditions, education, scholarly views

XX asrning boshlarida Turkiston(O‘zbekiston)da ko‘plab gazeta hamda jurnallar yuzaga keladi. “Birinci jadidlar nashri hisoblanmish – “Taraqqiy” gazetasi Toshkent shahrida Buxoroda “Buxoroi sharif” va “Turon” gazetalari nashr qilina boshlaydi. Toshkentda “Sadoi Turkiston”, Qo‘qonda “Sadoi Farg‘ona” gazetalari ish boshlaydi. Samarqandda “Samarqand” gazetasi va “Oyina” jurnali chop etiladi”¹.

Davr jarayonlari “Maorif va o‘qituvchi”, “Yer yuzi”, “Inqilob”, “Oyna”, “Alanga” kabi jurnal gazetalarda ko‘zgu kabi aks ettirilib, qimmatli manba bo‘lib xizmat qiladi.

“Maorif va o‘qituvchi” jurnali Xalq maorif komissarligi tomonidan Toshkentda 1925-yil martdan boshlab oyida bir marta chiqqan ta’lim-tarbiyaviy, ijtimoiy, adabiy, ilmiy jurnal bo‘lib, jurnalning eng faol mualliflari sifatida Ayniy, Fitrat, Cho‘lpon, Elbek, Xoji Muin, Vadud Mahmud, Abdulla Alaviy, Shokir Sulaymon, Ashurali Zohiriylarni keltirish mumkin.

1920-yillar oxirida sovet davlatining mafkuraviy siyosati keskin tarzda totalitar yo‘nalishga burildi. “Sinfiy kurash” va “burjua millatchiligiga qarshi kurash” shiorlari ostida amalga oshirilgan siyosiy repressiyalar mahalliy milliy ziyolilar — ya’ni ma’rifatparvar, jadid, milliy uyg‘onish g‘oyalariga sodiq ijodkorlar va olimlarni yo‘q qilishga qaratilgan edi. Bu siyosatning asosiy maqsadi jamiyatda mustaqil fikrlashni

¹ Beruniy Alimov Turkiston matbuoti solnomasi T.,2018 y

bartaraf etish, milliy g'oyalar va ma'naviy merosni sovet mafkurasiga to'liq bo'ysundirishdan iborat bo'ldi.

Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cho'lpon, Abdulla Qodiriy, Usmon Nosir kabi shaxslar bu jarayonning qurbonlariga aylandi. Ular zamonasining eng yetuk ma'rifatparvar va ijodkorlaridan bo'lib, o'z asarlarida milliy mustaqillik, ma'naviy erkinlik, bilim va adolat g'oyalarini targ'ib qilgan edilar. Shu bois ular "sovet tuzumiga qarshi" yoki "millatchi unsurlar" sifatida ayblanib, qatag'on qilindi, ko'plari otib tashlandi yoki qamoqda halok bo'ldi. Ilmiy nuqtayi nazardan, mazkur jarayon madaniyat va fan sohasida "intelektual genotsid" deb baholanadi. 1929–1933-yillar oralig'ida 200 dan ortiq yozuvchi, shoir, jurnalist va o'qituvchining qatag'on qilinishi — milliy

илмий ва ижодий салоҳиятнинг кескин йўқотилишига олиб келди. Natijada, milliy madaniyatning tabiiy rivoji uzildi, musiqashunoslik, adabiyotshunoslik va san'at sohalaridagi ilmiy maktablar o'z faoliyatini to'xtatdi.

Bu davrda qatag'onlar faqat shaxsiy taqdirlarni emas, balki butun milliy fikr tizimini izdan chiqardi. Ilmiy va madaniy jarayonlarda senzura, mafkuraviy nazorat va "sotsialistik realizm" metodi hukmron bo'ldi. Shunga qaramay, keyingi avlod ziyolilari — 40–50-yillardan boshlab — ana shu yo'qotilgan ma'naviy merosni tiklash, milliy ilmiy an'anani qayta jonlantirish uchun harakat boshladilar.

Milliy ma'rifatchilarmiz xonlik va Chor imperiya mustamlakasi hukmronligi va keyingi Sho'ro tuzumi paytida Turkiston xalqlarining ozodligi, savodxonligi yo'lida jonbozlik ko'rsatar ekanlar, bevosita musiqiy hayotga taalluqli jabhalarda ham e'tiborli ishlarni amalga oshirdilar. Milliy matbuotda G'.Zafariy, A.Cho'lpon, Elbek va A.Fitratlarning o'zbek musiqa merosi asoslarini o'rganishga doir maqola va tadqiqotlari e'lon qilina boshladi. Ta'kidlash joizki, milliy musiqa ijodiyotdagi zamonaviy muammolar xususida ziyolilarimiz tomonidan ko'plab maqolalar yozilgan bo'lsada, ularda keltirilgan muammolar mana bir asr o'tgan bo'lsa ham hali hanuz

dolzarb masala bo'lib kelmoqda. O'zbek ziyolilari bir tomondan xonlik va amirlik tuzumiga qarshi ichki ziddiyatlar bilan kurashgan bo'lsalar, boshqa tomondan zamonviy ilmlardan yiroqlashib, dunyoviy ilmlardan bexabar qolayotgan xalq savodxonligini oshirish yuzasidan amaliy ishlar olib borganlar.

Sobiq Sho'ro davridagi bir qator adabiyotlarda XX asr boshlari, xususan, inqilobgacha bo'lgan davrda Turkistonda nafaqat musiqa, balki butun madaniy ahvolning nihoyatda past darajada bo'lganligi ta'kidlanar edi². Xususan, "Mahalliy rus-tuzem maktablari Turkiston tub aholisi o'rtasida savodxonlikni yoyishda, ularni rus tili va madaniyati bilan tanishtirishda muhim rol o'ynadi. 1905-yildan keyin Buxoro va boshqa ba'zi shaharlarda milliy burjuaziya tomonidan yangi usuldagi maktablar tashkil etildi (bularda savod o'rgatish musulmonlar uchun xos bo'lgan tovush usuliga asoslangan va ona tilida olib borilgan). 1897-yilda mahalliy aholining 98% savodsiz edi. 1914/15 o'quv yilida umumta'lim maktablarida boshlang'ich maktab yoshidagi o'zbek bolalarining 2-3% qamrab olingan"³.

Yuqorida keltirilgan iqtibosdan ko'rinib turibdiki, rus mustamlakachilari Turkiston va O'zbekistondagi aholi savodlilik darajasini bevosita rus tilida so'zlashish va yozish kabi ko'nikmalar bilan belgilashadi. Binobarin, o'lkada 20 yillik qisqa davr ichida o'zbek yozuvining arab alifbosidan lotinlashtirilgan alifboga (1928-29 yillar) va yillarda esa rus yozuviga asoslangan kirill alifbosiga (1939-40 yillar) o'tkazilishi xalqning savod darajasiga ta'sir qilmay qolmadi.

Mazkur davrda bu zaminda yuzaga kelgan yuksalishlar, ma'naviy intilishlarning hammasi obyektiv ijtimoiy taraqqiyot va davr taqazosi edi. Bu jarayon tub ildizlari ming yillar qa'rida shakllanib, xalqning ma'naviy mulki sifatida ardoqlanib kelinar edi.

² Qarang: Кочаров В.Т., Из истории организации и развития народного образования в дореволюционном Узбекистане, Т. 1966;

³ Бендриков К. Е., Очерки по истории народного образования в Туркестане, М., 1966 г

Faqat ajdodlarimiz Yevropaliklar uchun boshqacha bo'lgan, sharqona-islomiy mafkurada hayot kechirardi.

Adabiyotlar ro`yxati:

1. Beruniy Alimov Turkiston matbuoti solnomasi T.,2018 y
2. Akbarov I.A. Musiqa lug'ati – Toshkent: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1987. – B.448.
3. Бендриков К. Е., Очерки по истории народного образования в Туркестане, М., 1966 г
4. Rizayev Sh: “Jadid dramasi” -“Sharq” nashriyot-matbaa konsernining bosh tahririyati. Toshkent – 1997 B. 67-70.
5. Кочаров В.Т.,Из истории организации и развития народного образования в дореволюционном Узбекистане, Т. 1966;
6. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. (O'zME) – Toshkent, Davlat ilmiy nashriyoti. [2006–2008] – 563 b.